



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING OILADAGI TA'LIM TARBIYA TO'G'RISIDAGI QARASHLARI

Qoziyeva Nilufar

Talabasi, Qoqon davlat unversituti Pedagogika va psixologiya fakulteti
Pedagogika yunalishi 01/24- guruh

Feruza Raximova

O'qituvchisi, Qoqon davlat unversituti Pedagogika va psixologiya fakulteti
Pedagogika yunalishi 01/24- guruh

Annotatsiya:

Mazkur maqolada oilaning jamiyat rivojidadagi o'rnini, uning ijtimoiy-ma'naviy poydevor sifatida tutgan mavqeyi tahlil etiladi. Abu Nasr Forobiy va ayniqsa, Imom Buxoriyning asarlari asosida oilaviy munosabatlar, ota-ona va farzand o'rtasidagi burchlar hamda qarindoshlik aloqalarining ahamiyati yoritilgan. Maqola yosh avlod tarbiyasida sharqona qadriyatlarining o'rnini ko'rsatib berishga xizmat qiladi.

Kali so'zlar: Oila, jamiyat, talim, tarbiya, mehr-muhabbat, shaxs, mexnat sevarlik.

Аннотация: В данной статье анализируется роль семьи в развитии общества, её значение как социально-духовной основы. На основе трудов Абу Насра Фараби и особенно Имама Бухари раскрываются вопросы семейных отношений, обязанностей родителей и детей, а также значение родственных связей. Статья служит раскрытию роли восточных ценностей в воспитании молодого поколения.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

Ключевые слова: семья, общество, образование, воспитание, любовь и забота, личность, трудолюбие.

Abstract:

This article analyzes the role of the family in the development of society and its position as a socio-spiritual foundation. Based on the works of Abu Nasr Farabi and especially Imam Bukhari, the article highlights family relationships, the duties between parents and children, and the importance of kinship ties. The article aims to demonstrate the role of Eastern values in the upbringing of the younger generation.

Keywords: family, society, education, upbringing, love and affection, personality, diligence.

Oila – jamiyatning eng kichik, ammo eng muhim bo‘g‘imi bo‘lib, u qon-qarindoshlik, nikoh va birga istiqomat qilish orqali bog‘langan insonlarning muqaddas ittifoqidir. Jamiyatimizga yuksak ilmiy, tarbiyali shaxs hamda jamiyat koriga yaraydigan inson yetishtirib beruvchi ilmiy maskanning boshlang‘ich nuqtasi aynan oiladir. Oila mehr-muhabbat, jipslik va birdamlik manbai bo‘lib, asrlar davomida sharqona tarbiya va umuminsoniy dunyoqarash shakllanadigan asosiy o‘choq hisoblanadi. Oila – jamiyatning eng kichik va muhim bo‘g‘imi bo‘lib, u qon-qarindoshlik, nikoh orqali yoki birga istiqomat qilish orqali bog‘langan odamlardan iborat ijtimoiy guruhdir. Jamiyatimizga yuksak ilmiy, tarbiyali shaxs hamda kerakli inson yetishtirib beruvchi ilmiy maskanning boshlang‘ich nuqtasi bu – oiladir. Oila mehr-muhabbat, jipslik, birdamlik manbaidir. Ana shu o‘zbekona qadriyatlar asosida jamiyat rivojlanib boradi. Haqiqatdan ham asrlar davomida sharqona va milliy tarbiyada shaxsning umuminsoniy dunyoqarashi shakllanishi albatta oiladan boshlanadi.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

Farzandlarimizning tarbiyasida asosan oilaviy va ijtimoiy muhitga e'tiborimizni doim qaratgan holda amaliy tavsiya berib turishimiz kerak. Tarbiya hamda sharqona madaniyat, urf-odat va qadriyatlarimiz – ota-bobolarimiz tomonidan qadrlangan eng buyuk hislatlarning oilada farzandlarga singdirish asosida yuzaga chiqib boradi.

Qadimdan sharq mutafakkirlarimiz o'z asarlarida oilani tarbiya o'chog'i sifatida qarab kelganlar. Oila tarbiya o'chog'i ekanligi, oilada farzand tarbiyasi buyuk mutafakkirlarimiz asarlarida ham o'z aksini topgan. Sharq mutafakkirlarining barchasini g'oyaviy jihatdan birlashtirgan asos shu bo'lganki, ular shaxs tarbiyasi va kamolotida oilaning o'rni, ota-ona va yaqin kishilarning yo'naltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalariga alohida e'tibor berganlar. Ular faqat oiladagina rivojlanishi mumkin bo'lgan sifatlar – halollik, poklik, mardlik, mehribonlik, haqqo'ylik kabi qator fazilatlarni barcha sifatlardan yuqori qo'yishlari bilan birga insoniy munosabatlarda namoyon bo'lgan yuksak fazilatlar, avvalo, ota-onadan bolaga o'tishi va ularning jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'siri kabi qimmatli fikrlar va bu boradagi amaliy ko'rsatmalarni o'z falsafiy-axloqiy, sotsiologik va psixologik qarashlarida ifodalab berganlar.

O'rta Osiyoning mutafakkiri va qomusiy olimi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug' Tarxon Forobiy. Forobiy "al-Muallim as-soniy" ("Ikkinchi muallim", Aristoteldan keyin), "Sharq Arastusi" nomlariga sazovor bo'lgan mutafakkirdir. Forobiy dunyoqarashida ijtimoiy siyosiy va axloqiy fikrlar hamda tarbiya muhim o'rinni egallaydi. Allomaning "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Fozil shahar aholisining fikrlari", "Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola", "Buyuk kishilarning naqlari", "Musiqqa haqida katta kitob", "Fuqarolik siyosati" va boshqa asarlari jamiyat va uni boshqarish, axloq-odob va ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlangan bo'lib, undan bugungi kun uchun ham yuksak axloqiy qarash olsak bo'ladi. Fozil odamlar shahar asarida



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

erkaklari issiqroq bo‘ladi, harakat etish va urinish a‘zolari erkaklarda kuchli bo‘ladi. Demak erkakning oilada nufuzi uning mehnatdagi o‘rni ayolga nisbatan kuchliroq ekanligini ta’kidlaydi. Ana shu jihatdan erkaklar baquvvat sanaladi. Ruhiy xususiyatlarga kelsak, g‘azab va shiddat kabi quvvatlar xotin jinsida bo‘shroq, erkaklarda kuchliroqdir. Marhamat va shafqat kabi xislatlar xotirlarda yana ham kuchlidir. Shuni anglamog‘imiz lozimki doim erkak kishi himoyasida bo‘lgan ayol erkak oldiga u o‘zini himoyachisi bordek uning panohida bo‘ladi. Bundan biz xulosa chiqarishimiz mumkin, erkak kishining irodasi kuchli bo‘lmog‘i u o‘z oilasi hamda farzandlarini himoyasi ostiga olib ularni ardoqlamog‘i lozim. Shu jumladan Forobiy asarida ayol doim tashqi yordamga muhtoj bo‘ladi.

Islom olamining ulug‘ muhaddisi Imom Buxoriy o‘zining "Al-adab al-mufrad" asarida oila a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlarni iymon va insoniylikning eng oliy mezoni deb belgilagan. Allomaning ushbu yo‘nalishdagi o‘gitlarini bir necha muhim jihatga bo‘lish mumkin:

Imom Buxoriy keltirgan hadislarda ota-onaga yaxshilik qilish, ularning duosini olish har qanday xayrli amaldan ustun qo‘yiladi. Hatto ota-ona o‘zga dinda bo‘lsa ham, farzand ularga nisbatan hurmat va xushmuomalalikni saqlashi shartligi ta’kidlanadi. Bu — oiladagi barqarorlikning birinchi shartidir.

Farzand tarbiyasidagi mas’uliyat: Alloma "Har biringiz rahbarsiz va o‘z qo‘l ostingizdagilar uchun mas’ulsiz" degan hadisni sharhlar ekan, ota oila boshlig‘i sifatida farzandlarining nafaqat moddiy, balki ma’naviy ehtiyojlari uchun ham javobgar ekanini uqtiradi Kichiklarga nisbatan mehribonlik: Imom Buxoriy: "Kichiklarimizga rahm qilmagan va kattalarimizning qadrini bilmagan kishi bizdan emasdir", — degan tamoyilni oilaviy munosabatlarning asosi sifatida ko‘rsatadi. Bu tarbiyada qattiqqo‘llik emas, balki namuna va mehr asosiy o‘rinda bo‘lishi kerakligini anglatadi.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

Qarindoshlik rishtalari (Sila-i rahm): Maqolada keltirilishicha, qarindoshlar bilan aloqalarni uzmaslik insonning umrini va rizqini barakali qiladi. Bu esa oilaning kengroq ma'noda — butun bir urug' va jamiyat bilan bog'lanishini ta'minlaydi.

Pedagogikada oila tarbiyasiga alohida e'tibor beriladi. Oila millat uchun uchish maydoni deb e'tirof etiladi. Bu haqda Sharq mutafakkirlarining fikrlari alohida e'tiborga molikdir. Masalan, taniqli olim, pedagog A. Avloniy o'zining mashhur "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida shunday deydi: "Tarbiyani kimlar qilur? qayerda qilinur? degan savol keladur. Bu savolga birinchi uy tarbiyasi, bu ona vazifasidir, ikkinchi maktab tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir". Haqiqatdan ham, millat tarbiyasiga birinchi navbatda onalar mas'uldirlar.

Yoki Abdurauf Fitrat alohida urg'u berganidek: "Millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim, axloq va bilimlarini kamolga etkazishlari zarur". Darhaqiqat, millatimizning etuk namoyandalarining tarjimai holiga nazar tashlasak, Muqimiy onasi Oyshabibidan, Munavvar qori onasi Xosiyatxon otindan, Fitrat onasi Bibijondan, Ishoqxon Ibrat onasi Huribibidan tarbiya va ilm sirlarini o'rganib, millati, yurti uchun jonkuyar insonlar bo'lib yetishgan. "Oila — jamiyatning eng kichik bo'g'ini" mavzusi yuzasidan olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, oila jamiyat hayotining boshlang'ich va eng muhim ijtimoiy tuzilmasi hisoblanadi. Har qanday jamiyatning ma'naviy holati va rivojlanish darajasi avvalo oilalardagi tarbiya sifati, ichki munosabatlar va qadriyatlarga bog'liq ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. Oila muhitida shakllangan tarbiya shaxsning butun hayotiga ta'sir qiladi. Bola aynan oilada birinchi marta axloqiy me'yorlarni, insoniy qadriyatlarni va ijtimoiy munosabat madaniyatini o'zlashtiradi. Shu sababli oiladagi har bir harakat, muomala va munosabat bolaning kelajakdagi shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, zamonaviy jamiyatda oilaning tarbiyaviy funksiyasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

Globalizatsiya jarayonlari, axborot oqimining kuchayishi va ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlar oilaning tarbiyaviy mas'uliyatini yanada oshirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, oilada ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash va sog'lom muhitni shakllantirish zaruriy ehtiyojga aylanmoqda.

Bundan tashqari, oiladagi barqarorlik jamiyatdagi barqarorlik bilan bevosita bog'liq ekanligi ham muhim xulosa sifatida qayd etiladi. Oilada mehr-oqibat, o'zaro hurmat va ishonch mavjud bo'lsa, bu jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda, oila jamiyatning faqat kichik bo'g'ini emas, balki uning ma'naviy poydevori hisoblanadi. Shu sababli oilani mustahkamlash va uning tarbiyaviy rolini kuchaytirish jamiyat taraqqiyoti uchun eng muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak mazkur maqolani yakunlar ekanmiz, shuni alohida ta'kidlash joizki, oila nafaqat biologik ehtiyojlar qondiriladigan maskan, balki millatning genofondi, tili, dini va qadriyatlarini asrab-avaylovchi muqaddas institutdir. Allomalarimizning o'lmas merosi shuni ko'rsatadiki, oilaviy baxtga faqat moddiy farovonlik bilan emas, balki yuksak ma'naviy muhit, o'zaro hurmat va mas'uliyat orqali erishiladi. Oila shaxsning ilk ijtimoiylashuv muhiti bo'lib, bola aynan shu yerda axloqiy qadriyatlarni, muomala madaniyatini, hurmat, mas'uliyat va mehnatsevarlik kabi fazilatlarni o'zlashtiradi. Shuning uchun ham oilada berilgan tarbiya insonning butun hayoti davomida uning xulq-atvoriga, dunyoqarashiga va jamiyatdagi o'rniga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, oila nafaqat tarbiya maskani, balki iqtisodiy va ma'naviy hamkorlik muhitidir. Oila a'zolari o'rtasidagi mehr-oqibat, o'zaro yordam va ishonch jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning ham poydevorini tashkil etadi. Agar oilada sog'lom muhit shakllansa, bu jamiyatda ham barqarorlik va tinchlikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Unda singdirilgan sharqona madaniyat, milliy qadriyatlar va insoniy fazilatlar shaxsning kelajakda jamiyat uchun foydali



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

inson bo‘lishini ta’minlaydi. Erkakning oilada himoyachi va yetakchi, ayolning esa murabbiy va mehribon ona sifatidagi o‘rni uyg‘unlashgan joyda sog‘lom jamiyat shakllanadi. Biz farzandlarimiz tarbiyasida oilaviy va ijtimoiy muhitga birdek e’tibor berishimiz, ularga amaliy tavsiyalarimiz bilan yo‘l ko‘rsatishimiz shart. Oila jamiyatning kichik modeli sifatida uning barcha ijtimoiy, axloqiy va madaniy xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi. Shuning uchun ham oilani mustahkamlash, uni ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash va to‘g‘ri tarbiya berish jamiyat taraqqiyotining eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
3. Najmiddinovna, Rahimova Feruza. "Factors Affecting The Socio-Pedagogical Activity Of Students In Multimedia Lectures." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.6 (2023): 601-603.
4. Najmiddinovna, Rakhimova Feruza, Yuldasheva Malohat Erkinovna, and Karimova Mukarram Khalimovna. "Pedagogical Aspects Of Improving The Socio-Pedagogical Activity Of Students In Multimedia Presentations." *Journal of Positive School Psychology* 6.11 (2022): 1584-1590.
5. Najmiddinovna, Rahimova Feruza. "The Unique Power Of Improving The Social Pedagogical Activity Of Students In Multimedia Vocitas." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.6 (2023): 604-606..
6. Duh, Matjaž, Tomaž Bratina, and Marjan Krašna. "The role of digital competences in electronic education." *Media, culture and public relations* 3.2 (2012): 131-137..



International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23rd May , 2026

Website: <https://econferencia.com>

-
7. Qundizaliyeva, Safiya Xolmirza Qizi. "Media ta'lim sharoitida yoshlarning tafakkurini rivojlantirishning metod va usullari." *Academic research in educational sciences* 3.12 (2022): 456-461..
 8. Najmiddinovna, Rahimova Feruza. "Advantages of Using Interactive Methods In Lessons." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.12 (2022): 1370-1374..
 9. Ёулдашева, Малохат, and Феруза Рахимова. "ВНЕДРЕНИЕ НОВЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ." *Ученый XXI века* 74 (2016).
 10. *Sotsiologiya asoslari*. – Toshkent: Universitet, 2019.